Tadqiqot uz

ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 7 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 7

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 7

ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№7 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-7

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ISSN: 2181-9130
www.tadqiqot.uz
ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

Sattarov Ja’surbek Avazbekovich
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: jasur_sattarov@proacademy.uz

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIKKA QARSHI PROFILAKTIKANING YANGI MODELI: MAHALLABAY YONDASHUV, ANTIFROD MEXANIZMLAR VA VIKTIMOLOGIK HIMOYA ISTIQBOLLARI

For citation: Sattarov Jasurbek Avazbekovich. A NEW MODEL FOR PREVENTING DIGITAL FRAUD: THE MAHALLA-BASED APPROACH, ANTI-FRAUD MECHANISMS AND PROSPECTS FOR VICTIMOLOGICAL PROTECTION. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 7.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22235977

ANNOTATSIYA

Maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlikning jinoyat-huquqiy, kriminologik, viktimologik va profilaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu jinoyat shakli an’anaviy firibgarlikning zamonaviy raqamli ko‘rinishi sifatida emas, balki bank, telekommunikatsiya, elektron to‘lov, onlayn kreditlash, ijtimoiy tarmoqlar, mahallabay profilaktika va aholining raqamli xulq-atvori bilan bog‘liq kompleks kriminologik hodisa sifatida baholanadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 yanvardagi PQ–1-son qarori mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, “Obod va xavfsiz mahalla”, “Ijtimoiy profilaktika haftaligi”, “qizil” toifadagi mahallalar bilan manzilli ishlash, mahalla yettiligi, ijtimoiy profilaktika ob’ektlari va idoralararo hamkorlik mexanizmlari kiberfiribgarlik profilaktikasi bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Sud amaliyoti materiallari tahlil qilinib, axborot texnologiyalari, uyali aloqa, SIM-karta, Face ID, onlayn kredit, xizmat mavqeiga ishontirish va psixologik bosim firibgarlikning amaliy mexanizmlari sifatida baholangan. Muallif kiberfiribgarlikka qarshi profilaktikada jazoni kuchaytirish bilan cheklanmasdan, “sekin qaror qabul qilish”, “xavf indeksi”, “vizual ishonch indikatori”, mahallabay kiberxavf xaritasi, bank-telekom antifrod hamkorligi va raqamli savodxonlik dasturlarini joriy etish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: firibgarlik, axborot texnologiyalari, kiberfiribgarlik, profilaktika, mahalla yettiligi, raqamli savodxonlik, viktimologiya, antifrod, onlayn kredit.

Саттаров Джасурбек Авазбекович,
Самостоятельный соискатель Правоохранительной
академии Республики Узбекистан
E-mail: jasur_sattarov@proacademy.uz

НОВАЯ МОДЕЛЬ ПРОФИЛАКТИКИ ЦИФРОВОГО МОШЕННИЧЕСТВА: МАХАЛЛИНСКИЙ ПОДХОД, АНТИФРОД-МЕХАНИЗМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВИКТИМОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы уголовно-правовые, криминологические, виктимологические и профилактические особенности мошенничества, совершаемого с использованием информационных технологий. Данная форма преступления рассматривается не как современная цифровая разновидность традиционного мошенничества, а как комплексное криминологическое явление, связанное с банковской сферой, телекоммуникациями, электронными платежами, онлайн-кредитованием, социальными сетями, профилактикой на уровне махалли и цифровым поведением населения. В статье, исходя из содержания и сущности постановления Президента Республики Узбекистан от 5 января 2026 года № ПП–1, во взаимосвязи с профилактикой кибермошенничества исследованы такие направления, как принцип «Благоустроенная и безопасная махалля», «Неделя социальной профилактики», адресная работа с махаллями «красной» категории, деятельность «махаллинской семёрки», объекты социальной профилактики и механизмы межведомственного взаимодействия. На основе анализа материалов судебной практики информационные технологии, сотовая связь, SIM-карта, Face ID, онлайн-кредит, создание доверия к служебному положению и психологическое давление оценены как практические механизмы совершения мошенничества. Автор обосновывает необходимость не ограничиваться усилением наказания в профилактике кибермошенничества, а внедрять механизмы «замедленного принятия решения», «индекса риска», «визуального индикатора доверия», махаллинскую карту киберрисков, антифрод-взаимодействие банков и телекоммуникационных операторов, а также программы повышения цифровой грамотности.

Ключевые слова: мошенничество, информационные технологии, кибермошенничество, профилактика, махаллинская семёрка, цифровая грамотность, виктимология, антифрод, онлайн-кредит.

Sattarov Jasurbek Avazbekovich,
Independent Researcher of Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan
E-mail: jasur_sattarov@proacademy.uz

A NEW MODEL FOR PREVENTING DIGITAL FRAUD: THE MAHALLA-BASED APPROACH, ANTI-FRAUD MECHANISMS AND PROSPECTS FOR VICTIMOLOGICAL PROTECTION

ANNOTATION

The article analyzes the criminal-law, criminological, victimological and preventive features of fraud committed through the use of information technologies. This form of crime is assessed not merely as a modern digital manifestation of traditional fraud, but as a complex criminological phenomenon related to banking, telecommunications, electronic payments, online lending, social networks, mahalla-based prevention and the digital behavior of the population. Based on the content and essence of Resolution No. RP–1 of the President of the Republic of Uzbekistan dated 5 January 2026, the article examines, in connection with the prevention of cyber fraud, such issues as the principle of a “Prosperous and Safe Mahalla”, the “Week of Social Prevention”, targeted work with “red-category” mahallas, the activities of the “mahalla seven”, objects of social prevention and mechanisms of interagency cooperation. Through the analysis of judicial practice materials, information technologies, mobile communications, SIM cards, Face ID, online loans, the creation of trust through official status and psychological pressure are assessed as practical mechanisms of fraud. The author substantiates the need not to limit cyber fraud prevention to the strengthening of punishment, but to introduce mechanisms such as “delayed decision-making”, a “risk index”, a “visual trust indicator”, a mahalla-based cyber risk map, anti-fraud cooperation between banks and telecommunications operators, and digital literacy programs.

Keywords: fraud, information technologies, cyber fraud, prevention, mahalla seven, digital literacy, victimology, anti-fraud, online loan.

Kirish

Mulkiy jinoyatchilikning eng moslashuvchan shakllaridan biri bo‘lgan firibgarlik jamiyatda iqtisodiy munosabatlar murakkablashgani sari o‘z usuli, ob’ekti, jabrlanuvchiga ta’sir mexanizmi va tashkiliy tuzilishini o‘zgartirib boradi. Ilgari firibgarlik ko‘proq bevosita muloqot, ishonchga kirish, soxta va’da yoki hujjatlar orqali sodir etilgan bo‘lsa, hozirgi sharoitda ushbu jinoyatning asosiy maydoni telefon qo‘ng‘irog‘i, messenjer, bank ilovasi, elektron to‘lov platformasi, onlayn kreditlash xizmati, ijtimoiy tarmoq, elektron savdo maydonchasi va sun’iy intellekt vositalariga ko‘chmoqda. Shu ma’noda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlikni faqat “kompyuter yoki telefon orqali sodir etilgan aldash” deb tushunish uning haqiqiy ijtimoiy xavfini to‘liq ochib bermaydi. Bu yerda texnika jinoyatning tashqi vositasi, ishonch esa uning ichki kriminologik yadrosidir.

H.R. Ochilov kompyuter vositalaridan foydalanib o‘zgalar mulkini talon-toroj qilishni tahlil qilar ekan, kompyuter texnikasining imkoniyatlari kengayishi mulkiy jinoyatlar shakl va turlarini ham o‘zgartirib, axborot xavfsizligi, naqd pulsiz hisob-kitoblar, bank plastik kartalari va elektron ma’lumotlar bilan bog‘liq yangi jinoyat-huquqiy muammolarni keltirib chiqarganini asoslaydi[1, B.4-5]. R.S.Altiev esa firibgarlikning raqamli iqtisodiyot sharoitida latentligi yuqori bo‘lgan mulkiy jinoyat sifatida rivojlanayotganini ko‘rsatib, onlayn bitimlar ommalashuvi mulkiy huquqlarni muhofaza qilishga oid qonunchilikni qayta baholashni talab qilishini ta’kidlaydi[2, B.4-5]. Mazkur ikki ilmiy yondashuv bir nuqtada tutashadi: firibgarlikni zamonaviy raqamli muhitda faqat Jinoyat kodeksi normasi doirasida emas, balki iqtisodiy ishonch, axborot xavfsizligi, bank infratuzilmasi, raqamli savodxonlik va jamoatchilik profilaktikasi bilan bog‘liq holda o‘rganish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 17-son qarorida firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulki yoki mulkka bo‘lgan huquqini qonunga xilof ravishda va tekin qo‘lga kiritish sifatida tushuntiriladi[3]. Ushbu ta’rif jinoyat-huquqiy kvalifikatsiya uchun yetarli bo‘lsa-da, raqamli muhitda sodir etiladigan firibgarlikning kriminologik mexanizmlarini tushuntirish uchun qo‘shimcha yondashuv talab etiladi. Zero, kiberfiribgarlikda jabrlanuvchi ko‘pincha mulkini majburiy ravishda emas, balki o‘z xohishi bilan, lekin soxta axborot, psixologik bosim, shoshilinchlik, qo‘rquv, ishonch, ijtimoiy tasdiq yoki texnik chalg‘itish ta’sirida topshiradi. Demak, bu jinoyatda huquqiy jihatdan “ixtiyoriy topshirish” mavjud bo‘lsa-da, kriminologik jihatdan ushbu ixtiyor aldov orqali boshqarilgan qaror natijasidir.

Maqolaning maqsadi axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlikning oldini olish va profilaktika qilishning huquqiy, kriminologik, viktimologik, institutsional va texnologik istiqbollarini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kiberfiribgarlikning zamonaviy shakllari, jabrlanuvchi xulq-atvori, mahallabay profilaktika imkoniyatlari, bank-telekom hamkorligi, sud amaliyotidan kelib chiqadigan empirik xulosalar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son qarori asosida ijtimoiy profilaktikaning yangi mexanizmlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi jinoyat-huquqiy tahlil, kriminologik umumlashtirish, viktimologik yondashuv, empirik sud amaliyotini tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy tahlil, situatsion profilaktika va institutsional modellashtirish usullariga tayanadi. Maqolada kiberfiribgarlik jinoyat tarkibi nuqtai nazaridan emas, balki jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi vaziyat, muhit, imkoniyat, psixologik ta’sir va profilaktik to‘siqlar nuqtai nazaridan o‘rganiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlikning markazida mulkni egallash maqsadi turgani shubhasiz. Biroq bunday jinoyatning amalga oshish mexanizmida jinoyatchi birinchi navbatda mulkka emas, jabrlanuvchining qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. SHu sababli kiberfiribgarlikni “mulkiy zarar yetkazuvchi axborot-psixologik ta’sir” sifatida ham baholash mumkin. Bu ta’sir ba’zan bank xodimi nomidan qo‘ng‘iroq qilish, ba’zan onlayn kreditni tezlashtirish va’dasi, ba’zan yuqori daromadli investitsiya, ba’zan ijtimoiy tarmoqdagi soxta savdo, ba’zan esa jabrlanuvchining shaxsiy ma’lumotlari va elektron identifikatsiyasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

L.Koen va M.Felsonning routine activity theory nazariyasiga ko‘ra, jinoyat sodir etilishi uchun motivlashgan huquqbuzar, munosib nishon va samarali nazoratning yo‘qligi bir vaqtda mavjud bo‘lishi lozim[4]. Kiberfiribgarlikda “munosib nishon” deganda faqat mol-mulkka ega shaxs emas, balki raqamli muhitda o‘zini qanday himoya qilishni bilmaydigan, bank va telekom xizmatlarining xavfsizlik qoidalarini tushunmagan, notanish raqam, havola, kod, Face ID yoki SIM-karta operatsiyalarining huquqiy oqibatini baholay olmaydigan fuqaro tushuniladi. “Samarali nazoratning yo‘qligi” esa bank ilovasida yetarli ogohlantirishlar bo‘lmasligi, telekom operatorlarda shubhali raqamlarni tezkor aniqlash mexanizmining zaifligi, mahalla darajasida raqamli xavfsizlik profilaktikasi tizimli yo‘lga qo‘yilmagani yoki jabrlanuvchi o‘z vaqtida murojaat qilmasligida namoyon bo‘ladi.

R.Klarkning situatsion profilaktika nazariyasi kiberfiribgarlikka nisbatan alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, jinoyatning oldini olish uchun jinoyat imkoniyatini kamaytirish, huquqbuzar uchun xavfni oshirish, jinoyatdan olinadigan foydani pasaytirish va huquqbuzarning o‘zini oqlash imkoniyatini cheklash zarur[5]. Bunday yondashuv axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlikda jazo muqarrarligi bilan bir qatorda jinoyat sodir etish imkoniyatini oldindan to‘sishni talab qiladi. Masalan, bank ilovasida notanish hisob raqamiga pul o‘tkazishda “ushbu operatsiya firibgarlik belgisi bo‘lishi mumkin” degan qo‘shimcha ogohlantirish chiqishi, onlayn kredit rasmiylashtirishda Face ID orqali tasdiq jarayoni bir necha xavf indikatori bilan bog‘lanishi, telekom operatorlar shubhali qo‘ng‘iroqlarni avtomatik belgilashi jinoyat imkoniyatini keskin kamaytiradi.

D.Kornish va R.Klarkning ratsional tanlov (rational choice) yondashuvi kiberfiribgarning xatti-harakatini “kam xavf yuqori foyda tez natija” formulasi orqali tushuntirish imkonini beradi[6]. Firibgar uchun internet muhiti jismoniy to‘qnashuvsiz, ko‘p jabrlanuvchiga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatish, shaxsini yashirish, pullarni tez aylantirish va dalillarni tarqatib yuborish imkonini beradi. SHuning uchun profilaktika ushbu formulani teskari yo‘nalishga burishi kerak: xavf yuqori, foyda past, harakat murakkab va aniqlanish ehtimoli katta bo‘lgan muhit yaratilsa, jinoyatchi uchun kiberfiribgarlik iqtisodiy jihatdan “ma’qul” variant bo‘lmay qoladi.

Kiberfiribgarlikning zamonaviy shakllari jinoyatchi va jabrlanuvchi o‘rtasidagi masofani yo‘qqa chiqaradi. Jinoyatchi boshqa hududda, boshqa davlatda yoki virtual koll-markazda bo‘la turib, jabrlanuvchiga bank xodimi, huquqni muhofaza qiluvchi organ vakili, onlayn savdo ishtirokchisi, ishga joylashtiruvchi, investitsiya maslahatchisi, qurilish kompaniyasi xodimi yoki kredit rasmiylashtiruvchi shaxs sifatida ko‘rinadi. Bu yerda “ko‘rinish” so‘zi muhim: jinoyatchi haqiqatda ushbu maqomga ega bo‘lmasa-da, raqamli muhitda shu maqomning ishonch signallarini sun’iy ravishda yaratadi.

Kiberfiribgarlikning birinchi keng tarqalgan shakli bank yoki to‘lov tizimi xavfsizlik xizmati nomidan aldashdir. Bunday hollarda jabrlanuvchiga hisob raqamidan pul yechilayotgani, nomiga kredit rasmiylashtirilayotgani, karta bloklanishi, bank xodimi bilan “hamkorlik” qilmasa mablag‘lar yo‘qolishi mumkinligi aytiladi. Jinoyatchi jabrlanuvchida qo‘rquv, shoshilinchlik va rasmiylik illyuziyasini hosil qiladi. Ikkinchi shakl onlayn kredit va elektron identifikatsiyadan foydalanish. Bunda jabrlanuvchiga kredit olib berish, kredit tarixini yaxshilash, bankdan tez pul chiqarish va’da qilinadi; pasport nusxasi, SIM-karta, Face ID, plastik karta yoki bank ilovasi orqali uning nomiga operatsiyalar amalga oshiriladi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Mirzaobod tuman sudining 2024-yil 11-dekabrdagi 1-1206-2301/136-sonli jinoyat ishi mazkur mexanizmni aniq ko‘rsatadi. Ish holatlariga ko‘ra, fuqaro Q. jabrlanuvchi H.ni uy-joy qurish uchun kredit olishga ishontirib, uning pasport nusxasini olgan, “Ucell” uyali aloqa kompaniyasidan uning nomiga yangi SIM-karta ochdirgan, “JOYDA” ilovasini yuklash va Face ID orqali shaxsni tasdiqlash jarayonidan foydalangan, keyin esa bank kartasi va telefon apparati bilan bog‘liq harakatlar orqali kredit operatsiyalari amalga oshirilishiga sharoit yaratgan[7]. Ushbu ishda axborot texnologiyalari jinoyatning oddiy yordamchi vositasi emas, balki jabrlanuvchining shaxsini raqamli muhitda tasdiqlash, uning nomidan moliyaviy operatsiyaga yo‘l ochish va aldashni ishonchli ko‘rsatish uchun ishlatilgan.

Uchinchi shakl “dropperlik” yoki shaxs nomiga karta, hisob raqami, SIM-karta yoki elektron hamyon ochdirish orqali jinoiy mablag‘lar harakatini yashirishdir. Bunday holatlarda yoshlar, ishsizlar, vaqtincha daromadga muhtoj shaxslar yoki raqamli savodxonligi past fuqarolar “faqat karta ochib berish”, “pulni o‘tkazib berish”, “komissiya olish” kabi takliflar bilan jinoiy zanjirga kiritiladi. Bu qilmishni amalga oshirayotgan shaxs ba’zan o‘z harakati jinoyat ekanini to‘liq anglamasligi mumkin; biroq aynan shu holat profilaktikaning ta’lim, huquqiy tushuntirish va mahallabay nazorat bilan bog‘liq bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi shakl soxta investitsiya va moliyaviy piramidalar. Oliy sud Plenumi 17-son qarorining 27-bandida JK 188^1-moddasida nazarda tutilgan faoliyatni firibgarlikdan farqlashda aybdorning ko‘proq fuqarolarni noqonuniy faoliyatga jalb qilishni ko‘zlagani, yangi jalb etilgan shaxslar mablag‘lari hisobidan avvalgi majburiyatlarni bajarib borishi kabi belgilarga ahamiyat berish lozimligi ko‘rsatilgan[3]. Bu tushuntirish kibermuhitda ayniqsa dolzarb, chunki ijtimoiy tarmoqlarda “kafolatlangan daromad”, “kriptoinvestitsiya”, “onlayn biznes”, “qisqa muddatda ikki baravar foyda” kabi va’dalar orqali fuqarolar jalb etiladi.

Beshinchi shakl ijtimoiy muhandislikka asoslangan guruhli aldov. Markaziy Osiyo media makonida keng tanilgan ayrim kriminal syujetlarda[9] bank xodimi sifatida tanishtirish, raqamni soxtalashtirish, koll-markaz tashkil etish, dispetcher va operatorlar rolini taqsimlash, jabrlanuvchini bosqichma-bosqich ruhiy bosim ostiga olish, pulni kartalar orqali harakatlantirish, soxta biznes yoki moliyaviy piramida orqali jabrlanuvchilarni jalb qilish holatlari tasvirlangan. Mazkur syujetlar badiiy voqelik sifatida emas, balki kiberfiribgarlikning kriminologik tipologiyasini tushuntiruvchi modellar sifatida ahamiyatlidir. Ularda jinoyatchi shaxsi emas, jinoyatning tashkil etilish logikasi ishonchni yaratish, qo‘rquvni kuchaytirish, qarorni tezlashtirish, pul yo‘nalishini yashirish va jinoyatchilar o‘rtasida rollar taqsimlash mexanizmi ko‘rinadi.

Kiberfiribgarlik tahlilida eng xavfli xato jabrlanuvchini “sodda”, “ehtiyotsiz” yoki “o‘zi aybdor” sifatida baholashdir. Bunday yondashuv jinoyatchining ijtimoiy muhandislik usullarini, psixologik ta’sirini va raqamli muhitdagi ishonch signallarini yetarli baholamaydi. D.Kaneman va A.Tverskiy inson qaror qabul qilish jarayonida har doim ratsional harakat qilmasligini, xavf, foyda, yo‘qotishdan qo‘rqish va evristik signallar odamning tanloviga kuchli ta’sir qilishini isbotlagan[10]. Kiberfiribgarlikda aynan shu psixologik zaifliklar ishga solinadi.

Firibgarlik sodir etishda shoshilinch qaror qabul qilish, haddan tashqari ishonch, qo‘rquv va xavotir, ortiqcha foyda kutish, ijtimoiy tasdiqqa ishonish kabi omillar alohida ahamiyatga ega. Bu jihatdan profilaktika jabrlanuvchiga faqat “ehtiyot bo‘ling” deyish bilan cheklanmasligi kerak. Aksincha, fuqaroning qaror qabul qilish jarayoniga xavfsizlik signallarini kiritish, uni shoshilinch qarordan to‘xtatish, notanish shaxs bilan muloqotda qo‘shimcha tekshiruvga undash, bank va telekom ilovalarida himoyaviy dizayn yaratish lozim.

“Sekin qaror qabul qilish” mexanizmi shu nuqtai nazardan katta amaliy ahamiyatga ega. Moliyaviy tranzaktsiya paytida bank ilovasida “Siz avval pul o‘tkazmagan hisob raqamiga pul o‘tkazmoqdasiz. Bu firibgarlik bo‘lishi mumkin”, shartnoma imzolash oldidan “Siz ushbu mulkni davlat reestri orqali tekshirdingizmi?”, telefon qo‘ng‘irog‘i vaqtida “Siz avval muloqot qilmagan abonent qo‘ng‘iroq qilmoqda” kabi ogohlantirishlarning paydo bo‘lishi jabrlanuvchining avtomatik reaktsiyasini sekinlashtiradi. Bu mexanizm insonni aldashdan mutlaq himoya qilmaydi, lekin uning qaror qabul qilish jarayoniga himoyaviy pauza kiritadi. Kiberfiribgarlikda bir necha soniyalik pauza ba’zan millionlab so‘mlik zararning oldini olishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ–1-son qarori mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, oila-turmush munosabatlari, ayollar va yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish hamda jamoat joylarida profilaktikani kuchaytirishga qaratilgan. Qarorda hududlar mas’ul rahbarlar va muassasalarga biriktirilishi, “qizil” toifadagi mahallalar bilan manzilli ishlash, “Ijtimoiy profilaktika haftaligi”ni o‘tkazish, profilaktik tadbirlar samaradorligini baholash kabi mexanizmlar belgilangan[11].

Ushbu qaror kiberfiribgarlikka qarshi kurashish nuqtai nazaridan ham muhim. Chunki kiberfiribgarlik telefon yoki internetda sodir etilgani bilan uning ijtimoiy ildizi mahallada

shakllanadi: ishsiz yosh tez daromad taklifiga moyil bo‘ladi; qariya bank xavfsizligi qoidalarini bilmasligi mumkin; migrant oilasi xorijdan pul o‘tkazmalarida aldovga tushishi ehtimoli yuqori; ayollar va yolg‘iz onalar soxta ijtimoiy yordam, kredit yoki savdo takliflariga ishonishi mumkin; kichik tadbirkor onlayn savdo yoki investitsiya aldovi qurboni bo‘lishi mumkin. Demak, so‘z yuritilayotgan hujjatdagi “xavfsiz mahalla” g‘oyasi faqat ko‘cha, jamoat joyi yoki oila-turmush munosabatlariga emas, raqamli muhitdagi xavfsizlikka ham tatbiq etilishi kerak.

Ayni vazifalar ijrosi yuzasidan Yashnobod tumani bo‘yicha olib borilgan ilmiy-amaliy o‘rganish natijasida 2024-yilda tumanda 163 ta firibgarlik jinoyati qayd etilganligi, 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich 157 tani tashkil qilganligi ma’lum bo‘ldi. Bir qarashda umumiy raqam pasaygandek tuyulsa-da, axborot texnologiyalari orqali firibgarlik sodir etish holatlari ortgani, 2024-yilda Toshkent shahrida ushbu yo‘nalishda 7637 ta holat qayd etilgani, “qizil” toifadagi 3 ta MFYda yetkazilgan zarar 471 mln. 200 ming so‘mga yetgani mazkur jinoyatning sifat jihatdan xavflilashganini ko‘rsatadi. Bunday holatda jinoyatlar sonining muayyan darajada kamayishi profilaktikaning to‘liq samarasini anglatmaydi; aksincha, bir jinoyat ortida ko‘p jabrlanuvchi, katta zarar, transhududiy ishtirokchilar va yuqori latentlik turganini hisobga olish lozim.

“Mahalla yettiligi” instituti ushbu jarayonning tabiiy ijtimoiy platformasidir. Rasmiy hujjatlarda mahalla raisi rahbarligida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori ishtirokidagi mahalla yettiligi jamoatchilik asosida faoliyat yuritishi belgilangan[12]. Kiberfiribgarlik profilaktikasida ushbu sub’ektlarning har biri aniq vazifaga ega bo‘lishi lozim. Mahalla raisi aholi ishonchi va umumiy muvofiqlashtirishni ta’minlaydi; hokim yordamchisi ishsizlik, qarzdorlik, tez daromadga ehtiyoj va norasmiy ish bilan bog‘liq xavflarni aniqlaydi; yoshlar yetakchisi dropperlik, onlayn operatorlik, soxta karta ochish kabi sxemalarga yoshlarning jalb etilishini oldini oladi; xotin-qizlar faoli ijtimoiy zaif ayollar, yolg‘iz onalar va qariyalar bilan ishlaydi; profilaktika inspektori huquqiy ogohlantirish va murojaatlar bilan ishlashni tashkil etadi; ijtimoiy xodim jabrlanuvchiga aylanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni individual kuzatadi; soliq inspektori esa soxta onlayn savdo, norasmiy xizmat, soxta tadbirkorlik va moliyaviy piramida belgilarini erta aniqlashga hissa qo‘shadi.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son qarori kiberfiribgarlik profilaktikasi uchun “mahalla bank telekom huquqni muhofaza qiluvchi organ ta’lim muassasasi” zanjirini yaratish imkonini beradi. Agar “Ijtimoiy profilaktika haftaligi” doirasida mahallalarda kiberfiribgarlikka qarshi alohida profilaktik kun tashkil etilsa, fuqarolarga bank kodlari, SIM-karta, Face ID, onlayn kredit, soxta investitsiya, shubhali havolalar, notanish raqamlar va dropperlikning huquqiy oqibatlari haqida tushuntirish berilsa, profilaktika umumiy ma’ruzadan amaliy himoya mexanizmiga aylanadi.

Ilmiy maqolada sud amaliyotidan foydalanish umumiy “amaliyotda uchraydi” degan ibora bilan cheklanmasligi kerak. Aniq sud, sana, ish raqami va ish holatlariga murojaat qilingandagina empirik asos ishonarli bo‘ladi. Shu jihatdan 2024-yil 11-dekabrdagi 1-1206-2301/136-sonli jinoyat ishi kiberfiribgarlikning zamonaviy mexanizmlarini tushunish uchun muhim misoldir. Unda kredit olish istagi, uy-joy ehtiyoji, onlayn ilovadan foydalanish, SIM-karta rasmiylashtirish, Face ID, bank kartasi va telegram orqali pasport ma’lumotlarini yuborish bitta jinoiy zanjirga birlashgan[7]. Bu ish jabrlanuvchining moliyaviy ehtiyoji va raqamli savodxonlikdagi zaifliklari firibgarlik sxemasining asosiy kirish nuqtasiga aylanishini ko‘rsatadi.

Bunday sud ishlari profilaktika uchun uchta muhim xulosa beradi. Birinchidan, firibgarlikning asosiy usuli ko‘pincha texnik emas, ishonchga asoslangan psixologik ta’sirdir. Ikkinchidan, jabrlanuvchi jinoyatga “hamkor” emas, balki soxta axborot ta’sirida noto‘g‘ri qaror qabul qilgan shaxsdir. Uchinchidan, firibgarlikning oldini olish uchun jinoyat sodir etilganidan keyingi jazo emas, balki jabrlanuvchi qaror qabul qilishidan oldingi profilaktik to‘siqlar muhim.

Amaldagi qonunchilikda axborot texnologiyalari orqali sodir etiladigan firibgarlikni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish masalasi doimiy rivojlanishni talab etadi. R.S.Altiev Jinoyat kodeksining 168-moddasida “kompyuter texnikasi vositalari” tushunchasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini to‘liq qamrab olmasligini asoslab, normani “axborot tizimi, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanib” hamda “to‘lov kartalari, soxta kartalar yoxud elektron to‘lov vositalaridan foydalanib” sodir etilgan holatlarni alohida qamrab oladigan tarzda qayta tahrir qilishni taklif etadi[2, B.155]. Bu taklif amaliy jihatdan asosli, chunki hozirgi firibgarliklar faqat kompyuter orqali emas, smartfon, planshet, bank ilovasi, SIM-karta, elektron hamyon, QR-to‘lov, biometrik identifikatsiya va messenjerlar orqali ham sodir etilmoqda.

H.R.Ochilov xorijiy davlatlar qonunchiligida kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toroj qilishga nisbatan javobgarlik bir necha yo‘nalishda shakllanganini ko‘rsatadi: maxsus jinoyat-huquqiy norma kiritish, axborot texnologiyalaridan foydalanishni kvalifikatsiya qiluvchi belgi sifatida belgilash, kompyuter axborotini jinoiy tajovuz predmeti sifatida e’tirof etish yoki kiberjinoyat turlarini yangilash[1, B.165–171]. Milliy qonunchilik uchun eng maqbul yo‘l ushbu variantlarni mexanik ko‘chirish emas, balki O‘zbekistondagi bank, telekom, onlayn kreditlash va mahallabay profilaktika tizimiga mos gibrid modelni ishlab chiqishdir.

Budapesht konventsiyasi kompyuter tizimlari, tarmoqlar va kompyuter ma’lumotlari xavfsizligiga qarshi qilmishlarni kriminalizatsiya qilish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi[13]. O‘zbekiston uchun ushbu standartlardan kelib chiqadigan muhim xulosa shundaki, kiberfiribgarlik ko‘p hollarda transchegaraviy xususiyatga ega bo‘ladi. Jabrlanuvchi O‘zbekistonda, SIM-karta mahalliy operatorda, bank ilovasi milliy bankda, operator boshqa hududda, server esa boshqa davlatda bo‘lishi mumkin. Demak, qonunchilikda tergovga qadar tekshiruv, tezkor axborot almashinuvi, elektron dalillarni saqlash va xalqaro huquqiy yordam mexanizmlari yanada aniqlashtirilishi zarur.

Kiberfiribgarlikka qarshi samarali siyosat jazo muqarrarligini ta’minlashi shart, lekin u faqat jazolashga asoslansa, kechikadi. Chunki firibgarlikda zarar ko‘pincha bir necha daqiqa ichida yuzaga keladi, pullar tezda turli hisob raqamlariga taqsimlanadi, jabrlanuvchi esa kech murojaat qiladi. Shuning uchun profilaktika jinoyat sodir etilmasidan avval ishlashi kerak.

Birinchi yo‘nalish bank ilovalarida majburiy profilaktik dizayn joriy etish. Notanish hisob raqamiga birinchi marta pul o‘tkazishda, katta summadagi tranzaktsiyada, kechki vaqtda tez-tez o‘tkazmalar amalga oshirilganda, SIM-karta yaqinda almashtirilgan bo‘lsa yoki Face ID orqali yangi qurilmadan kirilsa, tizim fuqaroni qo‘shimcha ogohlantirishi lozim. Bu cheklov emas, balki xavfsizlik pauzasi hisoblanadi.

Ikkinchi yo‘nalish telekom operatorlar ishtirokida “shubhali raqam” indikatorini yaratish. Agar bir raqamdan qisqa vaqt ichida ko‘plab fuqarolarga qo‘ng‘iroq qilinsa, raqam tez-tez almashtirilsa, “bufer” raqamlardan foydalanilsa yoki fuqarolardan shikoyat kelib tushsa, operator ushbu raqamni banklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan muvofiqlashgan holda xavfli toifaga kiritishi mumkin. Bunda shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi, qonuniylik va mutanosiblik printsiplari qat’iy saqlanishi zarur.

Uchinchi yo‘nalish mahallabay kiberxavf xaritasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son qarorida “qizil” toifadagi mahallalar bilan manzilli ishlash nazarda tutilgani kiberfiribgarlik bo‘yicha ham xavf indikatorlarini shakllantirish imkonini beradi[8]. Masalan, ishsiz yoshlar ulushi, qariyalar soni, onlayn kredit murojaatlari, firibgarlik bo‘yicha shikoyatlar, dropperlikka jalb etilgan shaxslar, bank kartalari bilan bog‘liq nizolar, soxta onlayn savdo holatlari, migrant oilalari soni kabi ko‘rsatkichlar mahalla kesimida tahlil qilinishi mumkin.

To‘rtinchi yo‘nalish “Xavf indeksi” profilaktika tizimi. Yashnobod tajribasida muqaddam firibgarlik jinoyatini sodir etgan shaxslarni onlayn savdo platformalari, moliyaviy operatsiyalar, auktsion savdolar, internet va uyali aloqa xizmatlaridan foydalanishda avtomatik monitoringga olish g‘oyasi ilgari surilgan. Bu taklif huquqiy jihatdan ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim: monitoring umumiy jazolovchi nazoratga aylanmasligi, faqat qonuniy asos, sud qarori yoki tezkor-profilaktik ma’lumotlar bilan bog‘liq holatlarda, shaxsiy ma’lumotlar muhofazasi talablariga muvofiq ishlashi kerak.

Beshinchi yo‘nalish “vizual ishonch indikatori”. Xususiy bandlik agentliklari, rieltorlik firmalari, avtosalonlar, turistik tashkilotlar, onlayn savdo sub’ektlari va investitsiya takliflari bo‘yicha

“yashil”, “sariq”, “qizil” toifadagi ishonch belgilarini joriy etish fuqarolarga tez va tushunarli xavf signali beradi. Bu usul huquqiy axborotni murakkab matn emas, vizual qaror signali orqali yetkazadi.

Xulosa

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlik O‘zbekistonda mulkiy jinoyatchilikning oddiy raqamli ko‘rinishi emas, balki ishonchni boshqarish, jabrlanuvchi qarorini chalg‘itish, moliyaviy infratuzilmadan foydalanish, ijtimoiy zaifliklarni ekspluatatsiya qilish va jinoiy daromadni tez harakatlantirishga asoslangan kompleks kriminologik hodisadir. Unga qarshi kurashda jinoyat-huquqiy kvalifikatsiya, jazo muqarrarligi, elektron dalillar bilan ishlash va xalqaro hamkorlik muhim bo‘lsa-da, asosiy strategik ustuvorlik profilaktika, ya’ni jinoyat imkoniyatini oldindan cheklash bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son qarorida belgilangan mahallabay manzilli ishlash, “Obod va xavfsiz mahalla”, “Ijtimoiy profilaktika haftaligi”, “qizil” toifadagi mahallalar va mas’ul sub’ektlarni biriktirish mexanizmlari kiberfiribgarlikka qarshi profilaktikaning yangi milliy modelini shakllantirish uchun yetarli institutsional asos yaratadi. Bu imkoniyatdan foydalanish uchun quyidagi takliflar maqsadga muvofiq:

“Ijtimoiy profilaktika haftaligi” doirasida “Kiberfiribgarlikdan himoya kuni”ni joriy etish va unda banklar, telekom operatorlar, profilaktika inspektorlari, prokuratura, mahalla yettiligi va IT mutaxassislar ishtirokida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

“Mahalla yettiligi” uchun kiberfiribgarlik profilaktikasi bo‘yicha maxsus metodik qo‘llanma ishlab chiqish. Unda yoshlar, qariyalar, ayollar, ishsizlar, migrant oilalari, onlayn kredit oluvchilar va kichik tadbirkorlar bilan ishlash algoritmi belgilanishi lozim.

Bank ilovalarida notanish hisob raqamiga pul o‘tkazish, yangi qurilmadan kirish, SIM-karta almashtirilgandan keyingi operatsiyalar va Face ID orqali kredit rasmiylashtirishda qo‘shimcha “sekin qaror qabul qilish” oynasini joriy etish.

Banklar, telekom operatorlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida “shubhali raqam shubhali tranzaktsiya shubhali karta shubhali akkaunt” tizimi asosida tezkor antifrod hamkorlik platformasini shakllantirish.

JK 168-moddasida “kompyuter texnikasi vositalari” tushunchasini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron to‘lov vositalari, to‘lov kartalari, mobil ilovalar va axborot tizimlarini qamrab oladigan kengroq formula bilan almashtirish masalasini muhokama qilish.

Onlayn kreditlash sohasida firibgarlikning maxsus profilaktik rejimini joriy etish: kredit oluvchi shaxsning identifikatsiyasi, SIM-karta egasi, qurilma ID, Face ID, bank kartasi egasi va ariza beruvchi shaxs o‘rtasidagi moslik avtomatik tekshirilishi lozim.

“Qizil” toifadagi mahallalarda kiberfiribgarlik xavf xaritasini shakllantirish va profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli hamda ijtimoiy xodim faoliyatini ushbu xarita asosida muvofiqlashtirish.

Yoshlarni dropperlikka jalb etishning oldini olish uchun maktab, kollej, universitet va mahallalarda “karta ochib berish”, “pul o‘tkazib berish”, “SIM-karta rasmiylashtirish” kabi harakatlarning jinoiy oqibatlari haqida maxsus profilaktik darslar tashkil etish.

Firibgarlik qurbonlari bilan ishlashning psixologik-huquqiy protokolini ishlab chiqish. Jabrlanuvchining uyalishi, qo‘rqishi yoki o‘zini ayblashi kech murojaat qilishga sabab bo‘lmasligi uchun mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar birinchi muloqotda ayblovchi emas, yordam beruvchi yondashuvni qo‘llashi lozim.

Sud hukmlari asosida profilaktik keyslar bankini yaratish. Ushbu baza jinoyat sodir etish usulini o‘rgatish uchun emas, balki fuqarolarni xavf signallari, aldash senariylari, ishonchni suiiste’mol qilish belgilari va huquqiy oqibatlardan xabardor qilish uchun ishlatilishi kerak.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Очилов Ҳ.Р. Ўзгалар мулкини компьютер воситаларидан фойдаланиб талон-торож қилганлик учун жавобгарлик: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2017. — Б. 4–5. (Ochilov H.R. Responsibility for the theft of other people's property using computer tools: dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences. — Tashkent: Tashkent State University of Law, 2017. — P. 4–5)
2. Алтиев Р.С. Фирибгарликнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2020. — Б. 4–5 (Altiev R.S. Criminal-legal and criminological aspects of fraud: dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences. — Tashkent: Tashkent State University of Law, 2020. — P. 4–5).
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2023 йил 23 июндаги 17-сон “Фирибгарликка оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарори. (Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 17 “On judicial practice in cases related to fraud” dated June 23, 2023.) https://lex.uz/ru/docs/6523582
4. Cohen L.E., Felson M. Social Change and Crime Rate Trends: A Routine Activity Approach // American Sociological Review. — 1979. — Vol. 44. — No. 4. — P. 588–608. — DOI: 10.2307/2094589.
5. Clarke R.V. Situational Crime Prevention: Successful Case Studies. — 2nd ed. — New York: Harrow and Heston, 1997. — P. 4–8.
6. Cornish D.B., Clarke R.V. The Reasoning Criminal: Rational Choice Perspectives on Offending. — New York: Springer-Verlag, 1986. — P. 1–16.
7. Жиноят ишлари бўйича Мирзаобод туман судининг 2024 йил 11 декабрдаги Қаюмов Дилшоджон Учқун ўғлига нисбатан 1-1206-2301/136-сонли жиноят иши бўйича ҳукми (The verdict of the Mirzaabad District Criminal Court of December 11, 2024 in criminal case No. 1-1206-2301/136 against Kayumov Dilshodjon Uchkun ugli)
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 5 январдаги ПҚ–1-сон “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.01.2026 й., 07/26/1/0017-сон. — URL: https://lex.uz/uz/docs/7973611
9. https://pkzsk.info/kazakhstanskijj-serial-moshenniki-ehto-ne-blizko-k-realnosti-ehto-ona-i-est/
10. Kahneman D., Tversky A. Prospect Theory: An Analysis of Decision under Risk // Econometrica. — 1979. — Vol. 47. — No. 2. — P. 263–291. — DOI: 10.2307/1914185.; Tversky A., Kahneman D. Judgment under Uncertainty: Heuristics and Biases // Science. — 1974. — Vol. 185. — No. 4157. — P. 1124–1131. — DOI: 10.1126/science.185.4157.1124.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 5 январдаги ПҚ–1-сон “Республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш йўналишида яхлит манзилли ишлаш тизимини жорий этишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.01.2026 й., 07/26/1/0017-сон. (Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 5, 2026 No. PP-1 “On additional measures aimed at introducing a system of integrated targeted work to create a safe environment in the neighborhoods of the republic.” — National Database of Legislative Data, 07.01.2026, No. 07/26/1/0017.) URL: https://lex.uz/uz/docs/7973611
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги ПФ–209-сон “Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 21, 2023 No. PF-209 “On measures aimed at radically increasing the role of the neighborhood institution in society

and ensuring its functioning as the first link in solving the problems of the population.") URL: https://lex.uz/docs/-6705763

13. Council of Europe. Convention on Cybercrime, ETS No. 185. — Budapest, 23 November 2001. — URL: https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=treaty-detail&treatynum=185

Tadqiqot uz

ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo‘yilgan talablar:

1. *Maqola o‘zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig‘ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo‘lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo‘lib, satrlarni eniga to‘g‘irlash, so‘zlarni boshqa qatorga ko‘chirish avtomatik tarzda bo‘lishi lozim.*
2. *Birinchi qator o‘ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahafaning o‘rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma’lumotlar o‘zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.*
3. *Keyingi qatordan o‘zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o‘zbek, ingliz va rus tillarida so‘zdan iborat annotatsiya beriladi.*
4. *Keyingi qatordan 6-10 ta o‘zbek, ingliz va rus tillarida kalit so‘zlar beriladi.*
5. *Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so‘zi minimal 2000 ta bo‘ladi.*
6. *Adabiyotlarning to‘liq ro‘yxati asosiy matndan so‘ng alifbo tartibida ko‘rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].*
7. *Maqolada keltirilgan dalillarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’ul, plagiat holati taqiqlanadi.*
8. *Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.*

Требования к оформлению научной статьи:

1. *Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.*
2. *В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.*
3. *Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.*
4. *Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.*
5. *Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.*
6. *Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, С.25].*
7. *Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.*
8. *Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.*

Requirements of the articles submitted:

1. *Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.*
2. *In the first line on the right: the author’s surname, given name and patronymic; in the second line: the author’s affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.*
3. *Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.*
4. *Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.*
5. *Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.*
6. *The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].*
7. *The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.*
8. *It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.*